



Date: 15 June 2026



ZAMONAVIY JAMIYATDA ILMMLI AYOLNING O'RNI

Qambarova Nasiba Qambarovna
Profi University Navoiy filiali
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi
Tel: +998-93-433-43-86
Nematilloev G'ayratjon SHuxrat o'g'li
Profi University Navoiy filiali
4-kurs “Pedagogika va psixologiya” sirtqi ta'lim yo'nalishi talabasi
Tel: +998-88-216-44-33

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy jamiyatda ilimli ayolning o'rnini va uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada tarixiy nuqtai nazardan ayollarning ilm-fan va ta'lim sohasidagi roli tahlil qilinadi, zamonaviy jamiyatdagi ilimli ayollar faoliyati, gender tengligi masalalari va ularning jamiyat rivojiga qo'shgan hissalar yoritiladi. Shuningdek, ilimli ayol oilaviy va jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishi, tadqiqot natijalari va statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Maqola ilmiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, ayollarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni jamiyat rivojida faollashtirishga qaratilgan strategik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ilimli ayol, zamonaviy jamiyat, gender tengligi, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim va ilm-fan, iqtisodiy faoliyat, madaniy o'sish.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению места образованной женщины в современном обществе и ее значения в социальной, экономической и культурной сферах. В статье анализируется роль женщин в науке и образовании с исторической точки зрения, освещается деятельность образованных женщин в современном обществе, вопросы гендерного равенства и их вклад в развитие общества. Также рассматривается, как образованная женщина может оказывать позитивное влияние на семью и общество, что подтверждается результатами исследований и статистическими данными. Статья написана на основе научных источников и включает стратегические рекомендации, направленные на расширение возможностей женщин для получения образования и их активизацию в развитии общества.

Ключевые слова: образованная женщина, современное общество, гендерное равенство, социальное развитие, образование и наука, экономическая деятельность, культурный рост.

Abstract: this article is devoted to the study of the place of a learned woman in modern society and her importance in the social, economic, and cultural spheres. The article analyzes the role of women in science and education from a historical perspective, highlights the activities of learned women in modern society, issues of gender equality, and their contribution to the development of society. It also



examines how a learned woman can influence positive changes in the family and society, confirmed by research results and statistical data. The article is written on the basis of scientific sources and includes strategic recommendations aimed at expanding women's opportunities for education and activating them in the development of society.

Keywords: educated woman, modern society, gender equality, social development, education and science, economic activity, cultural growth.

Agar Alloh taolo ayolni erkakning bekasi qilib qo'yanida, uni boshidan, agar qul bo'lganida, oyog'idan yaratgan bo'lar edi. Biroq, uni do'st qilib erkakka teng qilib qo'ygani uchun uni qovurg'adan yaratdi. Avreli Avgustin

Ayol bu mo'jiza u hayotga ma'no, insoniyatga ruh, dunyoga go'zallik baxsh etuvchi ilohiy qudrat timsolidir. U nafaqat insoniyat davomining biologik asosini yaratadi, balki butun jamiyatning ma'naviy va ruhiy tayanchiga aylanadi. Ayolning mo'jizasi uning ko'p qudratliligidir. Jamiyat taraqqiyoti va barqaror ijtimoiy rivojlanishning ajralmas omillaridan biri — inson kapitalidir. Bu jarayonda ayollar ta'limi va ilmiy faoliyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda ilmi ayol — nafaqat oila hayotining asosi, balki ta'lim, iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohalarida faol ishtirok etayotgan muhim ijtimoiy subyektdir. Ilmi ayol jamiyatda qat'iy rolga ega bo'lib, gender tengligi, ijtimoiy adolat va innovatsion rivojlanish kabi asosiy tamoyillarni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada ilmi ayolning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. [1].

1. Tarixiy nuqtai nazardan ilmi ayol

Tarixdan ma'lumki, qadimiy jamiyatlarda ayollarning ta'lim va ilm bilan shug'ullanishi har doim chegaralanmagan. Xususan O'zbekiston tarixida ham Bibixonim, Saroymulkxonim kabi ayollar donishmandlik va madaniyat borasida sezilarli iz qoldirganlar. Buyuk bobolarimiz ham ayollar ilmi bo'lishiga katta ahamiyat berganlar. Masalan, buyuk ajdodlarimizning yozgan hikmat-u nasihatlar yodimizga kelaveradi. Ularning har bir so'zi ilm olishga targ'ib etadi. Jumladan, Buxorodagi madrasa kattaligi jihatidan Movarounnahrda ikkinchi nufuzli madrasaning peshtoqiga Mirzo Ulug'bek tomonidan "Ilm olishga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir", degan hadis bitilgan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida ko'plab ilmi ayollar haqida yozgan. Demak, ilm olishda o'g'il farzand kabi qizlarni ham keng jalb etish kerakligi necha ming asr avval aytilgan ekan. Har bir qizimizning kelajagi oila, jamiyat va Vatanimiz kelajagidir. Yaqin o'tmishdagi zamondoshimiz Abdurauf Fitrat ham "ayollarimiz – millat onalari ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur", deya o'z asarida yozib, qizlarni ilm olishga da'vat etganini tarix sahifalarida ko'rishimiz mumkin. Har bir davrda buyuk ajdodlarimiz oiladagi farzandlarning ilmi bo'lishiga pand-u nasihat qilgan. Bu tarixiy faktlar ayollarning ilm bilan shug'ullanishi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. [2].

Ilk zamonlarda ayollar ilm-fan yo'nalishlarida kam ishtirok etgani bilan XX asrda ayollar universitet va ilmiy tadqiqotlarda faol qatnasha boshladi. Bu jarayon



ayollarning jamiyatda nufuzini oshirdi va ularni turli sohalarda yetakchi rolga olib chiqdi. [3].

2. Zamonaviy jamiyatda ilmiy ayolning roli

Bugungi kunda ayollar ko'p sohalarda, xususan ta'lim, sog'liqni saqlash, siyosat, ilm-fan va texnologiya sohalarida muvaffaqiyat qozonmoqda. Jamiyat taraqqiyoti va gender tengligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan strategiyalar ilmiy ayollarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Masalan, O'zbekistonning strategik hujjatlarida ayollarning ilmiy faoliyatini kengaytirish va ularni innovatsion yo'nalishlarda jalb etish bo'yicha choralar ko'rilmogda. Shuningdek Prezidentimiz tomonidan ularga bildirilgan ishonch, etibor nishonasi sifatida bo'lib o'tgan senatning yalpi majlisidagi so'zlari "Bir narsani tan olishimiz kerak: ayollar xalqning dardini boshqalardan ko'ra chuqur his qiladi. Bu yil dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlarda mehnatkash va oqila ayollarimiz qanchalik ko'p saylansa, bundan davlatimiz ham, jamiyatimiz ham faqat naf ko'radi".

Ilmiy ayol jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy hayotning muhim bo'g'iniga aylangan bo'lib, ular ilm-fan va tadqiqotlarda ishtirok etadi, karyera va rahbarlik pozitsiyalarini egallaydi, gender tenglikni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Bu boradagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar soni ortib bormoqda va bu holat jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda.

3. Ilmiy ayolning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta'siri.

"Barcha so'zlar, bilimlar, hunarlar va san'atlar bu so'zdan lazzat oladilar. Usiz na ishdan va na san'atda mazza bor. Ammo bundan g'oya ne? Bilmaydilar va bilish ham shart ham emas. Masalan, biror odam boy-badavlat, suruv-suruv ot-qo'ylarga, yer-suvlarga ega ayolga uylanmoq niyatida uning podasini boqib, yerini parvarish qilsa-da, zavqni ayolning borligidan oladi. Chunki ayolsiz u bularning barchasidan soviydi. Xuddi shunday, dunyoning butun hunarlari, ilmlari va hokazo hamma narsalari hayotni, zavqni hamda haroratni orifning nuridan oladilar. Zavqsiz ular uchun hamma yoq o'likka aylanadi", - deydi Jaloliddin Rumi [2].

Barchaga ma'lum, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida davlat boshqaruvida ayollarning o'rni va roli beqiyos. Xususan, Britaniya qirolligida, davlat rahbari necha yillarki qirolicha tomonidan boshqarib kelindi yoki Singapur davlatini olaylik. Singapur bugungi kunda sifatli ta'lim olib borish bo'yicha oliy o'rinlarda turibdi. Buni qarangki, davlat rahbari Halima Yoqub 2017-yildan beri Singapur prezidenti lavozimida ishlamoqda. Prezidentlikdan oldin 2013-2017-yillarda parlament spikeri lavozimida faoliyat yuritgan. Demak, Halima Yoqubning davlat rahbarligi lavozimiga kelishidan avval ham jamiyatda o'z o'rni bo'lgan. Bu kabi misollarni juda ko'p keltirib o'tishimiz mumkin. [4].

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda xotin-qizlarga-yaratib berilayotgan ulkan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollarimiz davlat va jamiyat hayotida faol





ishtirok etyapti, ularning mavqeyi tobora ortibbormoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi, huquq va erkinliklaridan foydalanishi, intellectual va ma'naviy yuksalishi, - kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang – tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat hokimiyatining oliy organlariga, shuningdek, shahar, tuman hokimi, vazir, elchi kabi mas'uliyatli lavozimlarga xotin-qizlarning tayinlanayotgani ham ularga bo'lgan ishonchning ortib borayotganini ko'rsatadi.

Ilmli ayollar o'z oilalari va jamiyatlarida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiradilar. Ilmli ayol oilada nafaqat tarbiyachi, balki hayotiy qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida ishtirok etadi. Bu, ayniqsa, O'zbek jamiyatida qadimdan hurmat qilinadi. Jamiyatning rivojlanishi uchun ilmli ayolning o'rni juda katta: u nafaqat farzand tarbiyasini yaxshilaydi, balki xotin-qizlar mehnat bozorida ham faol qatnashadi.

Iqtisodiy hayotda ayollar faol ishtirok etmoqda, ular o'z kasb-hunarlarini tanlab, tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqda. Bu yondashuv jamiyatda gender tengligini mustahkamlashga yordam beradi, chunki ilmli ayolar iqtisodiyotning barqaror o'sishiga o'z hissalarini qo'shadi. [5].

4. Ilmli ayol va gender tengligi masalalari

Jamiyatda ilmli ayolning o'rni gender tengligi masalalari bilan chambarchas bog'liq. Gender stereotiplari ayollarning ilm-fan, siyosat va iqtisodiyotdagi faoliyatini to'sqinlik qiluvchi element bo'lishi mumkin. Tarixiy stereotiplar ayollarning faqatgina uy va oila rollariga moslashtirilgan deb hisoblagan bo'lsa, zamonaviy jamiyat bu stereotiplarni o'zgartirish ustida faol ishlamoqda.

Yangi O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lamli va jadal islohotlar jarayonida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, salomatligini muhofaza qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha 2022– 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF 60-sonli farmonida davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan va bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. [6].

Gender tenglikni ta'minlash strategiyasida xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Birgina o'tgan yilning o'zida 31 ming nafardan ziyod ilmiy xodim ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsa, ularning qariyb 40 foizini ayollar tashkil etgan. Xususan, xotin-qizlarning 73 foizi oliy ta'limda, 16,5 foizi davlat sektorida, 10 foizi tadbirkorlik sohasida, 0,2 foizi notijorat sektorida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda. [5].

Tahlillarga ko'ra, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar, asosan, Toshkent shahrida yig'ilgan (49,6 foiz). Hududlarda esa ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar ko'rsatkichi pastligicha qolmoqda. Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan ayollarning 3 568 nafari ilmiy darajaga ega bo'lib, ularning 707





nafari fan doktori, ффваек6750куку0еоуцкыиавл2 412 nafari fan nomzodi va 449 nafari PhD ilmiy darajasiga ega xodimlar hisoblanadi (2023-yil sarhisobi bo'yicha).

Hozirgi kunda ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq, umumiy yillik moliyaviy hajmi 45,4 milliard so'mlik 82 ta ilmiy loyiha (27,8 milliard so'mlik 57 ta amaliy, qariyb 17 milliard so'mlik 25 ta innovatsion loyiha) olina ayollar tomonidan bajarilmoqda. [6].

Xulosa: Jamiyatda ilmiy ayolning o'rni nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda, balki madaniy va ma'naviy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy ayollar jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi, gender tengligini mustahkamlaydi va yangi avlodni rivojlantiradi. Zamonaviy jamiyatda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar ularning faolligi, bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va jamiyat manfaatlarini yanada yuksaltiradi. тррлмжвлмдмл

Umuman olganda, ilmiy ayolning jamiyatdagi o'rni mustahkam bo'lib, u har bir jamiyatning barqaror rivojlanishida ajralmas omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "JAMIYATDA AYOLLAR O'RNI", InterSPP maqolasi.
2. "JAMIYATDA AYOLLAR O'RNI", SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI.
3. "Ilmiy ayol – jamiyat ko'zgusi", Yoshlar Ovozi.
4. "Olima ayol – jamiyat tayanchi", IIAU maqolasi.
5. "Ayol konseptini tadqiq qilishning nazariy asoslari", inlibrary.uz.
6. "Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning roli to'g'risida", IjtimoiyFikr.uz.

